E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZ KO'HNA TARIXIMIZ DURDONASI

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi.
Hamdamov Shoxjahon G'ulom o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi.
E-mail: urmonov94@list.ru +99899 472 63 88

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizning chekka-chekka qishloqlarida bugungi kunda ham o'tkazilib kelinayotgan qadimiy urf-odat an'analarimiz, ularda amalga oshirilayotgan marosimlarimiz haqida fikr yuritilib, sunnat to'yi, nikox to'yi, milliy o'yinlarimiz, baxshichilik san'atida kuyga solinadigan dostonlarimizga alohida urg'u berilgan.
Kalit so'zlar: Yor-yor, dostonlar, alla, Vamberi, terak, kurash, ko'pkari, etnolog, Quruqsoy, Davtosh, Galabek, arqon, sovchi, beshik.
Аннотация: В данной статье рассматриваются древние традиции, проводимые и по сей день в отдаленных селах нашей страны, обряды, проводимые в них, особое внимание уделяется суннат-свадьбе, свадьбе никох, национальным играм, эпосам, воспетым в искусстве бахшизма.
Ключевые слова: Йор-йор, былины, алла, Вамбери, Тополь, борьба, кыпкари, этнолог, Курусой, Давтош, Галабек, веревка, сваха, колыбель.
Annotation: This article examines the ancient traditions held to this day in remote villages of our country, the rituals held in them, special attention is paid to the sunnat wedding, nikoh wedding, national games, epics sung in the art of Bakhshism.
Keywords: Yor-yor, epics, alla, Vamberi, Poplar, wrestling, kypkari, ethnologist, Kurusoy, Davtosh, Galabek, rope, matchmaker, cradle.

Kirish

Ko'p ming yillik boy tarixga ega bo'lgan yurtimizda, o'ziga xos, o'ziga mos urf-odatlar borki, ular qadim-qadim zamonlardan shu bugungi kungacha yetib kelgan. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, biz yashab turgan hudud G'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Zamonaviy, har tomonlama rivojlanayotgan va takomillashayotgan shaharlardan va u yerda yashayotgan aholi vakillaridan farqli o'laroq, ko'hna qadriyat va urf odatlar yurtimizni turli go'shalarida, qishloq va ovullarida saqlanib qolgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yurtimiz tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko'hnaligi nafaqat moddiy balki, madaniy qadriyatlarda ham o'z ifodasini topgan. Bu an'ana hamda udumlarimiz etnolog olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o'z asar va kundaliklarida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Bunga misol qilib ispan elchisi Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayoxa" kundaligi hamda Xerman Vamberining "Sayohatnoma" asarlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Keyingi yillarda bu jarayonni kengroq taxlil qilgan olimlarimizdan, A.Asqarov, K.Shoniyozov, A.Ashirov, I.Jabborov, S.Davletova, M.Ibragimova, X.Ismoilov, O.Bo'riyev va boshqalar o'zlarining ilmiy nazariy asarlarida o'zbek xalqining etnik tarixi, moddiy va ma'naviy hayoti xususan, to'y marosimlari to'g'isida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan, Muallif o'zbek

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

nikoh to‘yi, sunnat to‘yi va boshqa marosimlarning barcha jarayonlariga: sovchilik, fotiha, bevosita nikoh to‘yi urf-odatlariga va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan udumlarga alohida e’tibor qaratadi.

Maqolaning asosiy manbasini dala etnografik materiallari tashkil etadi. Dala etnografik materiallari suhbat va shaxsiy kuzatish asosida to‘plandi. Suxbat jarayonida ko‘proq urf odat an’analarimizni yaxshi tushungan nuroniy otaxonlarimiz, yuz bilan yuzlashayotgan momolarimiz bergan ma’lumotlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar

Milliy o‘yinlarimizning to‘y marosimlarimizni o‘tkazilishining ham o‘z tarixi va voqeligi bor desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun biz yashab turgan zamida ko‘plab manashunday boy milliy qadriyatlarimiz saqlanib qolgan. Bulardan “Ko‘pkari”, “Kurash”, “Besh tosh”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Happak”, “Bekinmachoq”, “Chillak”, “Arqon tortish“, “Oshiq o‘yini” kabi ko‘p qadimiy o‘yinlar, chaqaloqni tug‘ilishi bilan bog‘liq “Chilla” va “Chilla qochdi”, yosh kelin kuyov tuyi bilan bog‘liq unashtiruv marosimlari, “Fotiha”, “Boqon”, “Shox iloq”, “Oyoq bosdi“, “Joy ag‘darar”, “Un elash” va boshqa, shu kabi ko‘plab urf odatlar hali hanuz Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Chiyali, Dursun, Langar, Quruqsoy, Davtosh, Galabek, Qo‘rg‘ontepa kabi qishloqlarda, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sarosiyo, Uzun, Oltinsoy, Samarqand viloyatining Katta qo‘rg‘on, Nurota, Urgut, Bulung‘ur, Navoiy viloyatidagi Paxtachi, Xatirchi, Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin, Yangiobod, G‘allaorol va Forish kabi tumanlarida saqlanib qolgan[1:27].

Eng quvonarli tomoni oilaviy marosim, to‘y tadbirlarida yangragan qo‘shiq, yor-yor, o‘lan, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo‘lib qolib, shu bugungi kungacha yetib kelgan. Yaqinda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida bo‘ldim. U yerdagi urf-odatlar, shahardagidan tubdan farq qiladi. Sunnat to‘yda, to‘y bolalar onasini sochini ikkita qilib o‘rish, unga paxta bog‘lash, jelak kiydirib qari va qartaygan momolardek kiyintirish, kelin singari ta’zim qildirish kabi urf-odatlar ko‘p qadimiy bo‘lib, bizgacha yetib kelgan. Xatna to‘yi odati xalq orasida farzand qo‘lini halollash, “sunnat to‘yi” deb yuritiladi. “Chukiburron” atamasi bu odatning asl mohiyatini ifodalasa, “tug‘ilgan kun”, “imenina”, “maktabga borish to'yi”, “bog'chadan chiqish to‘yi” kabilar xatna odatining niqoblangan, yashirin nom-atamalari sifatida uzoq yillar qo‘llanib kelingan[2:21].

Eng muhimi, soch o‘rishdan tortib to‘y bolalar onasini kiyintirishgacha bo‘lgan yumushlarni yoshlar emas, to‘qson bilan to‘qnashgan, yuz bilan yuzlashgan momolar bajarishadi. Bundan maqsad esa, to‘y bolalar onasi momolarni yoshiga kirib, baxtli va saodatli umr kechirsin deya tilak tilashib, to‘y bolalar onasi va otasi sha’niga bag‘ishlab, ko‘p qadimiy qo‘shiqlar, og‘izdan og‘izga ko‘chib kelayotgan o‘lan va laparlar aytilib, ular mardligi, tantiligi, baxtli va farovon hayoti tarannum etildi. Bu esa o‘sha hudud aholisiga bir olam quvonch bag‘ishlabgina qolmay, ko‘hna urf odatlarga, ko‘hna qadriyatlarga bo‘lgan munosabat belgisi hisoblanadi.

Yurtimizning ayrim hududlarida barcha to‘ylar ko‘pkarisiz, kurashsiz o‘tmaydi. To‘ylar shaharlardagidek taklifnoma va to‘y xati orqali emas, baland, shirali ovoz sohibini “falonchanikiga” ertaga to‘yiga deya aytgan baralla chaqiruvidan so‘ng boshlanadi. To‘y oldi maslahat oshi, sabzi to‘g‘rar oshi, to‘ydan keyin yakun, yo‘qlov kabi urf odatlar hanuzgacha saqlanib qolgan. Kelin tushadigan xonaga chimildiq osib, baxtli va serfarzand bo‘lsin deya chimildiqqa bir juft taxta qoshiq, novvot osib qo‘yiladi.

Nikoh to‘yi tantanalarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilar to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni VII-VIII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi Tunyuquq (VII asr) bitiktoshida “sov” kalimasi sab-so‘z, gap ma’nosida ishlatilgan [3:89]. Demak, bundan yangi oilan paydo bo‘lishidagi sovchilik udumi uzoq o‘tmishda shakllanganligiga amin bo‘lamiz.

Oilaviy marosimlar qatoridan o‘rin olgan yana bir to‘y bolaning tug‘ilishi bilan bog‘lanadi va beshik to‘y deb yuritiladi. Odatda, bola tug‘ilganidan keyin 7-14 yoki 21 kun orasida aqiqa marosimi o‘tkaziladi[4].. Ushbu marosim yangi chaqaloq uchun Islomni kutib olish

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

marosimi xisoblanadi. Undan keyin beshik to‘yi qilinadi. Beshik to‘yi yangi tug‘ilgan farzandning birinchi beshikka belanishi bilan boshlanadi.

Shundan so‘ng yangi chaqaloqning onasi chaqaloqni beshikka belab turib, unga shirali ovoz bilan mazmun mohiyatga boy bo‘lgan alla aytib uhlatadi. Uning allasida bolani qo‘rqmaslikka undaydiga so‘zlar ishlatiladi. Sababi kichkina chaqaloq cho‘chib qolishini oldini olish xisoblanadi. Chaqaloq uhlaganidan so‘ng unga ko‘z tegmasligi uchun isiriq tutatilib beshik atrifida aylantiriladi.

O‘zbeklarda esda qoladigan to‘ylardan biri xatna (sunnat) to‘yi hisoblanadi. Bu to‘y xatna, sunnat, chupron, chukron, qo‘lini halollash, musulmonlikka kirish kabi atamalar bilan atab kelingan. To‘y egasining qo‘li ochiqligi, ko‘pincha, shu to‘yda aniqlangan. Farzandi uchun borini to‘kib-sochadigan qadimiy urf-odatimiz ham aynan manashu xatna to‘yidur. To‘ybolaning ona taraf qarindoshlari yani bobosi toy va kuyov tarafni sarpolar bilan siylagan. O‘zining qon urug‘i xisoblangan ota taraf qarindoshlari yurtga osh bergan, qarindosh-urug‘ va tanishlarga dasturxon yozgan[3:86].

Bu kabi urf-odatlar, to‘y marosimlarida o‘tkaziladigan udum va an’analar ko‘p qadimiy bo‘lib, momolarimiz va bobolarimiz tomonidan aytilib bugungi kungacha yetib kelgan. Qashqadaryo viloyatidagi kuyov va kelin to‘ylarida ijro etiladigan, yor-yor qo‘shiqlarida “baxt”, “taxt”; “omon”, “somon”, “alvon”, “polvon” kabi chiroyli qofiyali so‘zlar ko‘plab uchraydi.

Qat-qat ko‘rpa ustida,
Piyolaman yor-yor.
Yorga salom bergani,
Uyolaman yor-yor[5:146].

Eng qizig‘i, an’anaviy kelin salomlarda Allohga, Muhammad payg‘ambarimiz (s.a.v)ga, chahoryorlarga, avliyo va anbiyolar tilga olinadi va uni chechan qo‘shiqchi, ba’zan ikkita ayol ijro etadi. Odatda, kelin salom aytuvchi ijrochi mazkur marosimga fayz kiritishi yoki, aksincha, qizita olmasdan uyatga qolishi kuzatiladi. Shuning uchun ijrochi butun tajribasini, mahoratini, xonandalik san’atini to‘liq namoyish qilishga urinadi.

Qashqadaryoda o‘tkaziladigan to‘y marosimlari, ko‘p hollarda baxshilarsiz, do‘mbirani sodasi. baxshini baxshiyona qo‘shiqlarisiz o‘tmaydi. Unda baxshi tomonidan “Alpomish”u “Go‘rug‘li”, “Kuntug‘mish” dostonlaridan parchalar ijro qilinib, o‘sha joyning odamlari ulug‘lab kelayotgan termalarga murojaat qilinadi. Bu esa, to‘yni yanada zo‘r, qiziq, esda qolar darajada o‘tkazish imkonini beradi. Baxshilar tomonidan kuylab kelingan “Do‘mbiram”, “Kunlarim”, “Nima aytay?”, “Go‘ro‘g‘li”, “Bormi jahonda?..” kabi termalarning hammasida ham ma’lum darajada real tarixiy voqealar, xalqning kechinmalari ifodalangan[5:155]. Ularni yaratishda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Umir Safarov, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullayev), Rahmatilla Yusuf o‘g‘li, Qodir baxshi, Qahhor baxshi ijodi muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, ular tomonidan to‘y tadbirlarda, Navro‘z marosimlarida ijro etilgan termalar xalq hayotining badiiy ifodasi sanaladi.

Xulosa

Qadim tariximizdan yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, an’analarimiz, adabiyot-san’at muallah holda, o‘zga xalqlardan yashirincha paydo bo‘lib, rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon, jon qo‘shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaralgan, taraqqiy topgan, hatto jahonning ko‘plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning taraqqiy topishida muayyan hissasi mavjud. Biz bugungi kunda ko‘zimiz bilan ko‘rayotgan urf-odat an’ana va marosimlarimizning barchasi o‘zining boy qadimiy tarixiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

1. Nasriddinov F.N., Qosimov.A.S. O‘zbek xalq milliy o‘yinlari. 1 to‘plam. - Toshkent 1993. - 127 b.
2. Sattor, Mahmud. O‘zbek udumlari. -Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 - 192 b.
3. Adhamjon Ashirov. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. –276 b.
4. https://uz.eferrit.com/aqiqa-yangi-chaqaloq-uchun-islomni-kutib-olish-marosimi/.12.03.2023.
5. O.Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jumalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o‘quv qo‘llanma. - Toshkent.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. - 228 b.

WORDLY
KNOWLEDGE